

O‘ZBEKISTON TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Qodirov Humoyun Tolibjon o‘g‘li

Namangan muhandislik texnologiya instituti
mustaqil tadqiqotchi, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonning iqtisodiy islohotlari doirasida eksport salohiyatini kengaytirish va xalqaro savdo aloqalarini rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Xususan, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillar uchun Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar, jumladan, eksport hajmini oshirish, yangi bozorlarni rivojlantirish, GSP+ tizimidan foydalanib tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Adabiyotlar tahlilida David Rikardoning ustunlik nazariyasi, Heckscher-Ohlning resurslar farqiga asoslangan savdo modeli, Pol Krugman va Maykl Porterning xalqaro savdoga oid innovatsion yondashuvlari, shuningdek, eksport strategiyalarini takomillashtirishning ilmiy asoslari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy islohotlar, eksport salohiyati, xalqaro savdo, Taraqqiyot strategiyasi, GSP+ tizimi, xalqaro savdo nazariyalari, eksport strategiyasi, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация

В данной статье анализируются направления расширения экспортного потенциала и развития международных торговых связей в рамках экономических реформ Узбекистана. В частности, рассматриваются задачи, определённые в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, включая увеличение объёмов экспорта, развитие новых рынков, а также вопросы увеличения экспорта готовой продукции с использованием системы GSP+. В анализе литературы приведены теория сравнительных преимуществ Давида Рикардо, модель торговли, основанная на различиях в ресурсах Хекшера-Олина, инновационные подходы к международной торговле Пола Кругмана и Майкла Портера, а также научные основы совершенствования экспортных стратегий.

Ключевые слова: экономические реформы, экспортный потенциал, международная торговля, Стратегия развития, система GSP+, теории международной торговли, экспортная стратегия, экономика Узбекистана.

Abstract

This article analyzes the directions for expanding export potential and developing international trade relations within the framework of Uzbekistan's economic reforms. Specifically, it examines the tasks outlined in the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026, including increasing export volumes, developing new markets, and boosting the export of finished products using the GSP+ system. The literature review highlights David Ricardo's theory of comparative

advantage, the Heckscher-Ohlin trade model based on resource differences, innovative approaches to international trade by Paul Krugman and Michael Porter, as well as the scientific foundations for improving export strategies.

Keywords: economic reforms, export potential, international trade, Development Strategy, GSP+ system, international trade theories, export strategy, Uzbekistan's economy.

KIRISH

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar korxonalarining eksport imkoniyatlarini kengaytirish va jahon mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakat oldidagi eng muhim strategik masalalardan biri sifatida tashqi iqtisodiy munosabatlarni va eksportni rivojlantirish vazifasi turadi. Zero, mamlakatlararo savdo aloqalarini rivojlantirish uchun barqaror logistika infratuzilmasini shakllantirmasdan turib, eksport va savdo aloqalarini yuqori darajaga olib chiqish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish mumkin emas.

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tovarlar eksportida transport xizmati ko'rsatish tizimini yanada rivojlantirish, korxonalar o'rtasida raqobat muhitini mustahkamlash hamda ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida quyidagi vazifalar belgilangan: Respublikada eksport hajmini 2026-yilda 30 milliard AQSh dollariga yetkazish; Eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish; Avtotransport vositalari eksportini 3 baravarga oshirish va 1 milliard AQSh dollariga yetkazish; Tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksportini 3,3 baravarga oshirish; Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish; Eksportchi korxonalar sonini 6 500 tadan 15 000 taga yetkazish;

Tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga kengaytirish.

Ushbu vazifalarning izchil va samarali bajarilishi mamlakatda transport logistika tizimini takomillashtirish, uning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish hamda aholiga transport xizmatlari hajmini kengaytirish imkonini beradi. Shu sababli tashqi iqtisodiy aloqalardagi muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

David Ricardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortish tamoyillari to'g'risida" asarida komparativ ustunlik nazariyasini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, har bir mamlakat o'zining nisbatan kam xarajatli mahsulotlarini eksport qilishi va qimmatli mahsulotlarni import qilishi kerak. Bu nazariya xalqaro savdoning foydaliligini asoslaydi va davlatlar o'rtasidagi savdoni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ricardo davlatlarning o'ziga nisbatan kam xarajatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi orqali global savdo hajmini oshirib, barcha davlatlar uchun foyda keltirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu nazariya bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab kelmoqda. [2]

Eli Heckscher va Bertil Ohlin "Heckscher-Ohlin modeli"da (H-O modeli) mamlakatlar o'rtasidagi savdo kapital va mehnat kabi resurslarning nisbiy farqlari bilan izohlanadi. Ular davlatlar o'zida ko'p va arzon bo'lgan resurslarga asoslangan mahsulotlarni eksport qilishlari kerak deb hisoblashgan. Masalan, mehnat resursi ko'p bo'lgan davlatlar mehnat talab qiluvchi mahsulotlarni, kapital resursi ko'p bo'lgan davlatlar esa kapital talab qiluvchi mahsulotlarni eksport qilishi lozim.

Bu model xalqaro savdoning resurslar taqsimoti va nisbiy ustunlikka asoslanganligini tushuntiradi. [3] Paul Krugman "Geografiya va savdo" nomli asarida yangi savdo nazariyasini rivojlantirgan. U iqtisodiy geografiya va monopolistik raqobat kabi tushunchalarni kiritgan hamda davlatlar o'rtasidagi savdoning sabablari va natijalarini o'rganishga yangi yondashuvlar taklif qilgan.

Krugmanning nazariyasi savdoning miqyosi va iqtisodiy geografiyaga asoslanganligini tushuntiradi va mahsulotlarning diversifikatsiyasi orqali savdoning o'sishini tahlil qiladi. [4] Michael Porter "Xalqlarning raqobatbardosh ustunligi" asarida milliy raqobat ustunligi nazariyasini ishlab chiqqan. U davlatlarning global bozorda qanday qilib raqobatlasha olishi va muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini o'rgangan. Porterning nazariyasi eksport strategiyasini rivojlantirishda muhim hisoblanadi.

U milliy raqobatbardoshlikni to'rtta asosiy omilga asoslagan: omil shart-sharoitlari, talab shart-sharoitlari, qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlar va firma strategiyasi, tuzilmasi va raqobati. Bu omillar davlatlarning raqobatbardoshligini oshirib, eksport salohiyatini kuchaytiradi. [5] Joseph E. Stiglitz "Globalizatsiya va uning noroziligi" asarida globalizatsiya va xalqaro savdoning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiladi.

U xalqaro savdoning iqtisodiy o'sish va rivojlanishga qo'shgan hissasini tan oladi, biroq globalizatsiya jarayonidagi tengsizlik va adolatsizliklarga ham e'tibor qaratadi. Stiglitz xalqaro savdo siyosatini takomillashtirish va adolatliroq qilish uchun takliflar beradi. Uning asari xalqaro savdo va globalizatsiyaning murakkabligini tushunishga yordam beradi.

Ushbu olimlarning asarlari eksport tushunchasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan va ular davlatlar uchun eksport siyosatini shakllantirishda asosiy manba hisoblanadi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida xalqaro savdo tarkibiga texnika yutuqlari ta'siri tufayli xalqaro mehnat taqsimotida tabiiy resurslar omilining roli pasayishga olib keldi. Shu sababli XX asrning 50-yillarida shved olimlari E. Heckscher va B. Ohlin tomonidan industrial jamiyatda xalqaro savdo hajmi va nomenklaturasiga ta'sir etuvchi turli omillarning tadqiq etilishi D. Ricardo nazariyasini to'ldirish va asosiy jihatlarini aniqlashtirish imkonini berdi. Natijada, ular "narxlarning ishlab chiqarish omillariga tenglashtirish" [3] teoremasini ta'riflab berishdi.

Nobel mukofoti laureati, amerikalik iqtisodchi V. Leontyev o'z hisob-kitoblarida 1947-yilda kapitali ko'p davlatlardan biri hisoblangan AQSH kapital ko'p talab qiladigan mahsulotlarni emas, balki mehnat ko'p talab qiladigan mahsulotlarni eksport qilayotganini aniqladi. Shu tariqa, "Leontyev Paradoksi" deb nomlangan

asarida V. Leontyev xalqaro savdo nazariyasini yanada rivojlantirdi. V. Leontyev o‘zidan oldingi tadqiqotchilardan farqli ravishda ishlab chiqarish omillari qatoriga mehnat va kapitaldan tashqari ilmiy-texnika progressi ta‘sirini va mehnat turlarini (oddiy va malakali) ham e‘tiborga olishni taklif etdi. [6]

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalqaro savdo nazariyasiga S. Vernon, G. Kindelberger va L. Wells tomonidan yangi “Mahsulot hayoti sikli” qo‘shimchasi taklif etildi [7]. Ularning fikriga ko‘ra, har bir mahsulot mamlakatlararo ayirboshlanganda bozorda quyidagi bosqichlarni o‘tadi: Bozorga kiritish va kengaytirish; Bozorning yetilishi; Eskirish.

O‘zbekistonlik olimlardan X.T. Qodirov va T.O. Maxmudovlar tomonidan mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, mahalliy mahsulotlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish uchun sharoit yaratish hamda Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikni mustahkamlash strategiyalari tahlil qilingan.

Tadqiqotda Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlar va xalqaro integratsiya yo‘lida erishilgan yutuqlar, Yevropa Ittifoqining O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayoniga moliyaviy yordam ko‘rsatishi va GSP+ tizimining mamlakat eksportiga ta‘siri yoritib berilgan. [8]

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati va uni rivojlantirishning asosiy yo‘llari hamda ushbu jarayonga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tashqi iqtisodiy faoliyat va eksportni tizimli tahlil qilish usullari, shuningdek, iqtisodiy-statistik metodlar qo‘llanilgan.

Tahlillar natijasida mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish borasida nazariy hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat tashqi savdosida eksport ko‘rsatkichlari, ya‘ni eksport qiluvchilar uchun yuqori ahamiyatga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Eksport mamlakatning xususiy iqtisodiyotini rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, eksport mamlakatga valyuta kirimini oshiradi, bu esa moliyaviy tizim barqarorligini ta‘minlashga hamda valyuta xavfsizligini kuchaytirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Eksport mamlakatni xalqaro bozorda hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu xalqaro munosabatlarni kuchaytirib, yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini yaratadi.

Mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri mahsulotlarning eksportini oshirish hamda jahon bozoridagi raqobatbardoshligini ta‘minlashdir. Eksport faoliyati orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish va eksport hajmini ko‘paytirish asosiy maqsadlardandir. Buning uchun quyidagi yondashuvlar muhim: Eksport jarayonlarini rivojlantirish uchun bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish va avtomatlashtirish;

Eksport litsenziyalari va ruxsatnomalarini olish jarayonlarini osonlashtirish; Eksportni rag'batlantirish uchun erkin savdo zonalari va maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish.

Mamlakatda eksportni rag'batlantirish va tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2023-yilda tashqi savdo aylanmasi 62,6 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 12,1 milliard AQSH dollar yoki 23,9% ga ko'paygan.

2023-yilda eksport hajmi 24,4 milliard AQSH dollar bo'lib, 2022-yilga nisbatan 23,8% ga oshgan. Import hajmi esa 38,1 milliard AQSH dollar ni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 24,1% ga o'sgan.

Tashqi savdo saldosini ko'rsatkichiga kelsak, 2022-yilda saldo -11,0 milliard AQSH dollar bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich -13,7 milliard AQSH dollar ga yetdi. Bu raqamlar import hajmining eksport hajmidan yuqoriligini ko'rsatadi.

Import va eksport ko'rsatkichlari mamlakatning xalqaro bozorlarga integratsiyasini aks ettiradi. Bu ichki va tashqi bozorlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirib, yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini oshiradi. Import va eksport miqdorlari o'rtasidagi farq iqtisodiy diversifikatsiyani ham o'z ichiga oladi. Bu mamlakatning mahsulot va xizmat turlarini kengaytirib, iqtisodiy o'zgarishlarga moslashishini ta'minlaydi.


1-jadval

O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	2022-y	2023-y	2023-yilni 2022-yilga nisbati %
1	Tashqi savdo aylanmasi	50500,3	62567,4	123,9
2	Eksport	19732,6	24426,2	123,8
3	Import	30767,8	38141,2	124,1

Tashqi savdo aylanmasi (international trade) — bu mamlakatning hududlari tashqarida boshqa mamlakatlar bilan to'lov, import va eksport jarayonlarini o'z ichiga olgan iqtisodiy o'zgarish va aloqalar kompleksi. Bu jarayonlar qo'shimcha mamlakatlar o'rtasida xalqaro bozorlarda mahsulotlarni almashtirish uchun zarur. Xalqaro bozorlar, mamlakatlarning iqtisodiy aloqalarini kuchaytiradi va global ishtirokda ishtirok etishga imkoniyat beradi. Tashqi savdo aylanmasi mamlakatning valyuta balansini, moliyaviy tizimning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatlar o'rtasida tashqi savdo aylanmasi, tashqi investitsiyalar va texnologiyalar almashinuvini o'z ichiga oladi. Xalqaro bozorlar orqali mahsulot va xizmatlarni eksport qilish, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini va innovatsion rivojlanishni rag'batlantiradi.

Tashqi savdo aylanmasi mamlakatlar uchun rivojlanish, innovatsiya va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlash uchun kritik muhimdir. Bu o'zgarishlar global bozorlar orqali o'zlashtiriladi va mamlakatlar iqtisodiy muvofiqligini ta'minlash uchun strategik rejalar asosida boshqarilishi kerak.



1-rasm. O'zbekistonni tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar¹

O'zbekiston Respublikasi jahonning 198 mamlakati bilan savdo jarayonini amalga oshirib kelishda. Mamlakatning tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar ichida 2023-yilda Xitoy 21,9 foiz ulushga, Rossiya 15,8 foiz, Qozag'iston 7,0 foiz, Turkiya 5,0 foiz, Janubiy Korea 3,7 foiz, Turkmaniston 1,7 foiz, Qirg'iziston 1,5 foizni tashkil qildi. O'zbekistonni tashqi savdo siyosatida asosan ushbu davlatlar bilan samarali savdo aloqalarni o'rnatgan.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida Xitoy, Rossiya, Qozag'iston eng yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar hisoblanadi. Mamlakatning Xitoy bilan tashqi savdo aylanmasini 2021-yilda 7462,5 mln. AQSH dollarni tashkil etib shundan eksport 2529,1 mln. AQSH dollarni import hajmi esa 4923,4 mln. AQSH dollarni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatgich 2023-yilga kelib 13722,0 mln. AQSH dollarni shundan eksport 2461,8 mln. AQSH dollarni, import 11260,1 mln. AQSH dollariga yetgan. Mamlakatning ushbu mamlakat bilan tashqi savdoda import hajmi eksport hajmidan yuqori bo'lib saldo ko'rsatgichi -8 798,3 ga teng bo'ldi.

Mamlakatning tashqi savdo aylanmasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlardan Rossiya bilan 2021 yil 7550,6 mln. AQSH dollar, 2022-yil 9381,8 mln. AQSH dollar, 2023-yil 9883,8 mln. AQSH dollarni, Qozag'iston bilan 2021-yil 3920,6 mln. AQSH dollar, 2022-yil 4651,1 mln. AQSH dollar, 2023-yil 4398,9 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan bu mamlakatlarda import hajmi eksport ko'rsatgichlaridan yuqori bo'lib tashqi saldosi manfiyni tashkil qilgan.

O'zbekiston tashqi savdo faoliyatida faqat Qirg'iziston va Afg'onistonda eksport hajmi import hajmidan yuqori ko'rsatgichni tashkil qiladi. 2023-yilda Qirg'iziston bilan tashqi savdo aylanmasi 953,4 mln. AQSH dollarni tashkil qilib eksport 631,5

¹ https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/tashqi-savdo_21_11_22_uzbek.pdf

mln. AQSH dollari, import ko'rsatgichi esa 321,9 mln. AQSH dollari, Afg'oniston bilan esa 867 mln. AQSH dollari shundan eksport 856,7 mln.

AQSH dollari, import ko'rsatgichi esa 10,3 mln. AQSH dollari tashkil qilgan Bundan ko'rinadiki mamlakatda ishlab chiqarilgan sanoat, xizmat ko'rsatish, qishloq ho'jaligi mahsulotlari uchun Qirg'iziston va Afg'oniston samarali bozor bo'lib xizmat qiladi

2-jadval

O'zbekistonni tashqi savdo aylanmasi dinamikasi ¹

(mln. AQSH dollar)

№	Mamlakatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
1	XXR	7 452,5	9 059,7	13 722,0
	Eksport	2 529,1	2 632,0	2 461,8
	Import	4 923,4	6 427,7	11 260,1
2	Rossiya	7 550,5	9 381,8	9 883,8
	Eksport	2 088,2	3 151,1	3 307,6
	Import	5 462,2	6 230,7	6 576,1
3	Qozag'iston	3 920,6	4 651,1	4 398,9
	Eksport	1 178,4	1 407,5	1 372,5
	Import	2 742,2	3 243,5	3 026,4
	Turkiya	3 410,0	3 382,0	3 099,7
	Eksport	1 692,4	1 643,5	1 248,5
	Import	1 717,6	1 738,5	1 851,2
4	Koreya Respublikasi	1 898,8	2 342,5	2 343,2
	Eksport	57,7	42,8	40,4
	Import	1 841,1	2 299,8	2 302,9
5	Turkmaniston	902,0	928,6	1 094,4
	Eksport	191,9	197,0	171,2
	Import	710,1	731,6	923,2
6	Germaniya	765,7	1 170,2	1 054,2
	Eksport	72,2	99,0	75,8
	Import	693,5	1 071,3	978,4
7	Fransiya	280,8	344,3	984,7
	Eksport	21,3	72,6	392,1
	Import	259,5	271,7	592,6
8	Qirg'iziston Respublikasi	953,6	1 263,3	953,4
	Eksport	792,0	982,5	631,5
	Import	161,6	280,7	321,9
9	Afg'oniston	673,7	765,6	867,0
	Eksport	667,5	756,3	856,7
	Import	6,2	9,3	10,3

2023-yilda Respublika tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushni Toshkent shahri egalladi — 38,8% ulush bilan 24 265,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Eng quyi ulush esa Surxondaryo viloyati hissasiga to'g'ri kelib, ulushi 0,5% yoki 325,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Hududlar kesimida tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlari 2023-yilda

¹ https://stat.uz/images/uploads/reliz2021/tashqi-savdo_21_11_22_uzbek.pdf

2022-yilga nisbatan quyidagicha o'zgarishlarni ko'rsatdi: Andijon – 117,4%, Jizzax – 207,3%, Qashqadaryo – 134,8%, Navoiy va Namangan – 107,8%, Samarqand – 121,1%, Toshkent viloyati – 102,1%, Xorazm – 110,7%, Toshkent shahri – 123,7%. Biroq, ayrim hududlarda o'sish sur'atlari pasaygan: Qoraqalpog'iston Respublikasi – 90,8%, Buxoro – 98,2%, Surxondaryo – 87,2%, Farg'ona – 95,3%.

2023-yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlari ulushi 32,9% ni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 6,8% ga kamaydi. Boshqa xorijiy davlatlar bilan savdo aylanmasi esa 67,1% ni tashkil etdi, bu ko'rsatkich 6,8% ga oshdi.

MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 20 559,5 mln. AQSH dollarini tashkil qildi, shundan: Eksport – 8 092,6 mln. AQSH dollar, Import – 12 466,9 mln. AQSH dollar. MDH davlatlari orasida eng yuqori savdo hajmi: Rossiya – 48,1%, Qozog'iston – 21,4%, Turkmaniston – 5,3%. Meva va sabzavot eksporti 2023-yilda 1 757,7 ming tonna meva va sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 1,1% ga yoki 18,9 ming tonna ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari quyidagilardan iborat: Rossiya – 37,0%, Pokiston – 16,7%, XXR (Xitoy) – 12,3%, Qozog'iston – 10,3%.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti qiymati 1 180,8 mln. AQSH dollar bo'lib, 2022-yilga nisbatan 3,3% ga oshdi va umumiy eksportning 4,8% ini tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti 2023-yilda 3 050,0 mln. AQSH dollar qiymatdagi to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi. Bu umumiy eksportning 12,5% ini tashkil etdi, ammo 2022-yilga nisbatan 3,8% ga kamaydi. To'qimachilik mahsulotlari tarkibida asosiy ulushni: Ip kalava – 41,1%, Tayyor to'qimachilik mahsulotlari – 41,0% tashkil etdi.

Mamlakatning yengil sanoat korxonalarini dunyoning 65 ta davlati ga 639 turdagi to'qimachilik mahsulotlarini eksport qildi.

O'zbekiston tashqi savdo siyosatini rivojlantirish yo'nalishlari bir necha asosiy jihatlarni qamrab oladi. Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: Eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar turlarini kengaytirish va ularning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish.

Yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratish. To'qimachilik va qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali eksport hajmini oshirish.

- Yangi bozorlarni o'zlashtirish va mavjud savdo hamkorlari bilan aloqalarni mustahkamlash. Ayniqsa Yevropa Ittifoqi va Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish.

- Eksport bop mahsulotlarni ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va shu orqali mahsulot sifatini oshirish.

- Jahon savdo tashkiloti (WTO) va boshqa xalqaro savdo mexanizmlariga qo'shilish jarayonlarini jadallashtirish, bu orqali O'zbekistonning xalqaro savdoda o'z o'rniga ega bo'lishi hamda bojxona jarayonlarini soddalashtirishda erishish mumkin.

-Tashqi savdo uchun logistika imkoniyatlarini yaxshilash, transport yo'nalishlarini kengaytirish va "yashil koridorlar" tizimini joriy etish.

- O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro miqyosda tanitish, milliy brendlarni rivojlantirish va ularning xalqaro savdodagi ishtirokini kuchaytirish muhimdir. Ushbu yo‘nalishlar mamlakatning tashqi savdo siyosatini jadal rivojlantirish va xalqaro bozorda mustahkam o‘rin egallashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni.
2. Рикардо Д. «Начало политической экономии и налогового обложения» (пер. с англ.) М.: Издательств «Эконов-Ключ», 1993.
3. Хекшер Э. и Олин Б. Влияние внешней торговли на распределение дохода – М.: «ТЕИС», 2006
4. Портер М. «Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран» (пер. с англ.) М.: Издательств «Международные отношения», 1993.
5. Reynolds-Feighan, A.J. (2001) Air freight logistics. In A.M. Brewer, K.J. Button and D.A. Hensher (eds.), Handbook of Logistics and Supply-Chain Management. Elsevier Science Ltd., UK, 431-439.
6. Леонтьев В. Внутреннее производство и внешняя торговля: новое исследование позиций американского капитала – М.: «ТЕИС», 2006.
7. Вернон С. Экспериментальная экономика / Пер. с англ. под научн. ред. Р. М. Нуреева. — М.: ИРИСЭН; Мысль, 2008. — 808 с.
8. Qodirov H.T, Maxmudov, T.O. O‘zbekistonning to‘qimachilik mahsulotlari eksportida yangi bozorlar: Yevropa ittifoqi bozoriga kirishning strategik ahamiyati. "Marketing" ijtimoiy-iqtisodiy, tadbirkorlik-biznesga ixtisoslashgan ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. 2024 8 son 304-309 bet
9. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari
10. Olimjonovich, M. T. (2024). Raqamli iqtisodiyotda sanoat 4.0 ni rivojlanishini oziga xos jihatlari. Science and innovation, 3(Special Issue 24), 1061-1063.